

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

BOTANIKA KAFEDRASI

“DAK da himoyaga tavsiya etilsin”

Tabiatshunoslik va geografiya fakulteti
dekani _____ dots. Xo‘jamqulov B.
“ _____ ” _____ 2013 yil

XOLTO‘RAYEVA MAXBUBA NURMAMATOVNAning

**5420100-Biologiya ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavr darajasini olish
uchun**

**QARSHI SHAROITIDA TOPINAMBURNI BIOEKOLOGIK
XUSUSIYATLARI
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar

b.f.n. B.Boysunov

Bitiruv malakaviy ishi botanika
kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tdi
Kafedra mudiri _____ B.Boysunov
№ 11- sonli bayonnoma 14 may 2013 yil

QARSHI – 2013 y

MUNDARIJA

KIRISH

I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI

- 1.1. Qarshi vohasining tuproq va iqlim sharoiti
- 1.2. Tadqiqotning manbai va metodlari
- 1.3 Topinamburning madaniylashtirish tarixi va xalq xo‘jaligidagi ahamiyati

II BOB. TOPUNAMBURNI BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

- 2.1. O‘shish va rivojlanishi
- 2.2. Ekologik xususiyatlari

III BOB TOPUNAMBURNI YETISHTIRISH VA PARVARISHLASH USULLARI

- 3.1. Topinamburni ekishga tayyorlash va ekish
- 3.2. Parvarishlash usullari

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

ILOVALAR

KIRISH

Bugungi kunda respublikamizda sanoatning turli soxalarini rivojlanishi tabiiy xom ashe xaxiralariga bulgan talabni oshishiga sabab bulmokda. Respublikamiz tabiatining uziga xosligi xalk xujaligi uchun kimmatli xom ashe xisoblanadigan usimlik turlarini kupaytirish imkonini beradi. Shunday usimliklardan biri Topinambur (*Heliantus tuberosus* L.) yoki yer nokidir.

Mavzuning dolzarbligi Topinambur farmatsevtika, ozik-ovkat va chorvachilikda yem-xashak sifatida yaxshi mahsulot bo'lib hisoblanadi. Shuningdek uning fototsintetik xususisiyati yukori. Bugungi kunda aholini ekologik toza va sifatli mahsulot bilan ta'minlashda fruktoza qandini topinambur tuguraklaridan sanoat yo'li bilan olish yo'lga qo'yilgan bo'lib, yurtimizda selluloza va uning efirlariga, hamda qog'oz mahsulotlariga bo'lgan talab yil sayin oshib bormoqda. Respublikada ishlab chiqarilayotgan selluloza miqdori esa nihoyatda kam va u ishlab chiqaruvchi korxonalarning faqatgina 10-12 foiz talabini qondira oladi, xolos. Shu maqsadda respublikamizda topinamburni keng miqyosda yetishtirish maqsadida uning bioekologik xususiyatlarini o'rganish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Ishning maqsad va vazifalari. Mazkur bitiruv malakaviy ishning, maqsadi Qarshi vohasining och tusli bo'z tuproqli sharoitida topinamburning bioekologik xususiyatlarini o'rganish va Qarshi sharoitida ularni yetishtirishning samarali usullarini ishlab chiqish. Ishning vazifalari esa quyidagicha:

1. Topinamburning o'sish va rivojlanishini o'rganish;
2. Och tusli bo'z tuproq sharoitida ekish muddatlariga bog'liq ravishda ildiz tuganaklarini rivojlanishini o'rganish;
3. Gullashi va tuganak hosil qilish biologiyasini o'rganish;
4. Ekologik xususiyatlari (issiqqa, sovuqqa, tuproq tarkibiga munosabati) ni o'rganish;
5. Parvarishlash va xosilni saqlashni samarali usullarini aniqlash.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Jahon tajribasida topinambur oziq-ovqat va sanoat maqsadida uzoq yillardan buyon yetishtirib kelinadi shu sababli topinamburning MDH mamlakatlaridan olib kelingan "Vadim", "Interes", "Vostorg", "Beliy ranniy", "Belaya urajaynaya" navlari respublikamiz sharoitida N.A.Amirxanov, Z.I.Umrzakovalar tomonidan o'rganilgan. Keyingi yillarda respublikamizda topinamburning "Fayz-Barka", "Mo'jiza" navlari yaratildi. Topinamburning "Fayz baraka" navi O'zO'ITI da yaratilgan bulib, 2006 yil O'zbekistan respublikasi xududida ekish uchun tavsiya etilgai qishloq xo'jalik ekinlari davlat reyestriga kiritilgan. Topinamburning yangi "Mu'jiza" navi esa UzUITI da yaratilgan bo'lib, 2011 yil O'zbekisgon respublikasi xududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari davlat reyestriga istiqbolli nav sifatida kiritildi. Toshkent kimyo-texnologiya institutining

olimlari sanoat miqyosida topinambur o'simligidan olingan tolali xomashyodan (sellyuloza) "Namangan qog'ozi" korxonasida yozuv qog'ozi ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi va uning turli sifat ko'rsatkichlari aniqlandi. Shuningdek, O'zO'ITI ilmiy xodimlari A.Rusiamov, R.Mavlonova, T. Duysenovlar tomonidan Toshkent viloyatining tipik bo'z tuproqlarida topinamburning "Fayz-Barka" va "Mo'jiza" navlarini yetishtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borganlar. yaratild

Ob'ekti va predmeti Tadqiqot obekti sifatida QarshiDU agrouchastkasida ekilgan topinamburning "Fayz-Barka" va "Mo'jiza" navlari

Ilmiy yangiligi. Qarshi vohasining och tusli bo'z tuproqli hududlarida topinamburning o'sish va rivojlanishi, ekish muddatlariga bog'liq ravishda ildiz tuganaklarini rivojlanishi, gullashi va tuganak hosil qilish biologiyasi, ekologik (issiqqa, sovuqqa, tuproq tarkibiga munosabati) xususiyatlari o'rganilib, parvarishlash va xosilni saqlashni samarali usullari aniqlandi.

Amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishda keltirilgan ma'lumotlardan botanika va o'simliklar fiziologiyasi darslarida o'quv jarayonida foydalanish, hamda botaniklar, o'simlikshunoslar uchun uslubiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, Ishda 4 rasm va 2 jadvallar berilgan. Uning xajmi 55 betni tashkil etadi.

I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI

I.1. Qarshi vohasining tuproq va iqlim sharoiti

Qashqadaryo viloyati jami 2856,8 ming gektar tuproq va yer resurslariga ega, shu tuproq resurslaridan atigi 453 ming gektari doimiy sug'oriladigan yer maydoni hisoblanadi. Bu raqamlardan kurinadiki, Qashqadaryo viloyatida kelajakda o'zlashtirishga rejalashtirish mumkin bulgan tuproq reso'rlari mavjud. Bu resurslarning asosiy qismini cho'l mintakasi so'r tusli qo'ng'ir, taqirli tuproqlari tashkil qiladi. O'z navbatida bu tuproqlar meliorativ nuqtai nazardan noqulay xossa-xususiyatga ega bulsada, ularning meliorativ, ekologik va unumdorlik holatini yangi agrotexnologik uslublarni qo'llash orqali yaxshilash shu kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Qashqadaryo vohasi tuproq koplamidan qishloq xo'jaligida samarali foydalanish maqsadida 1929-1931 yillarda A.T.Livanov Shaxrisabz va Qarshi xududlarining kurik va sug'oriladigan maydonlarida tadqiqot ishlarini olib borib, yer resurslari haritasini tuzdi. N.T.Muravyeva (1959) Qashqadaryo vohasi tuproqlarini o'rganib, ularni 5 ta agrotuproq gurux,lariga ajratdi va tavsifladi. M.M.Bratcheva, G.I.Vaylert, N.T.Muravyeva (1963) Qashqadaryo vohasi tuproq tiplarini o'rganib ularni ekinbopligini ko'rsatib berdilar. M.U.Umarov (1974), A.M.Rasulov (1976) tomonidan Qarshi cho'lida tarqalgan taqirli, so'r tusli qo'ng'ir, qumli cho'l tuproqlarning meliorativ, agrofizik xossalari mukammal o'rganildi. M.U.Karimova (1968) esa so'r tusli qo'ng'ir tuproqlarning ishlab chiqarish kobiliyatini vegetatsion idishlarda o'rgangan. 1990 yillardan boshlab shu kungacha "Yer kadastri" shuba korxonasi, Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot davlat instituti, O'zbekistan Milliy universiteti, Toshkent davlat agrar universiteti, Buxoro davlat universiteti xodimlari tomonidan Qashqadaryo vohasi xududida joylashgan fermer xo'jaliklari uchun turli mikyosli va maqsadli tuproq haritalari tuzildi, bonitet ballari belgilandi.

Qashqadaryo vohasida tarqalgan asosiy tuproqlarga yangi ma'lumotlar asosida tavsif berildi, viloyat sug'oriladigan dexkonchiligiga keng jalb kilingan hamda kelajakda qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish imkoniyatiga ega bulgan qarshi cho'li so'r tusli qo'ng'ir va sug'oriladigan taqirli-utloki tuproqlarining fizik xossalari va agrokimyoviy tarkibi to'g'risida yangi ma'lumotlar olindi va taxlil kilindi hamda ularning unumdorligini mineral va organik o'g'itlar fonida biologik o'g'itlar hamda sideratlar qo'llash orqali barkarorlashtirishning agrotexnologiyasi ishlab chikildi. Bu agrotexnologiyalar dala sharoitida sinovdan o'tkazilib ijobiy natijalar olindi.

Qashqadaryo vohasi cugʻoriladigan yerlarining asosiy qismini tashkil qiladi. Bu tuproqlar keng tarqalgan. Mexanik tarkibi yengil va oʻrta qumoq. Gumus miqdori 0,80-1,4%, 60 sm chuqurlikda 0,30-0,40% oʻrtasida uzgarib turadi. Azot miqdori 0,079-0,128%, fosfor 0,110-0,180%, kaliy 1,5-2,0%. Shoʻrlanish darajasi xlorli-sulfatli tipga mansub. Och tusli boʻz tuproqlar lyossimon, ayrim xollarda prolyuvial keltirilmalarda va elyuvial togʻ jinslarida rivojlangan, serkarbonatli, evolyutsiyasi davomida cugʻorish natijasida avtomorf sharoitdan yarim gidromorf sharoitli rejimga uta boshlaydi va boʻz-utloki tuproqlar shakllanadi.

Vohada tarqalgan barcha tuproq tiplari bir-biridan gumus va oziqa elementlari miqdori va mexanik tarkibi bilan farqdanib kolmasdan, balki hozirgi meliorativ holati, yaʼni shoʻrlanishi, eroziyaga chalinish darajasi kabilar bilan ham farqdanadi. Buni 1-rasmda keltirilgan raqamlardan kurish mumkin. Unga kura voha tuproqlarida shoʻrlanish och tusli boʻz va choʻl mintakasi tuproqlarida sezilarli namoyon boʻladi. Odatda cugʻorish jarayonining boshlanishi bilan ikkilamchi shoʻrlanish kuchayadi, natijada 0-100 sm qatlamda tuz zaxirasi ortadi.

Qashqadaryo vohasi cugʻoriladigan yerlarning hozirgi meliorativ holatini qoʻyidagi raqamlar bilan izohlash mumkin. Viloyatda 1990 yilda 452,3 ming gektar cugʻoriladigan qishloq xoʻjaligi yerlari mavjud bulsa, shundan 163,3 ming gektari yoki 36,1% kuchsiz, 76,6 ming gektari yoki 16,9% oʻrtacha, 28,4 ming gektari yoki 6,3% kuchli, jami 268,3 ming gektari yoki umumiy cugʻoriladigan qishloq xoʻjalik yerlarining 59,3% turli darajada shoʻrlanganligi kayd kilingan.

2000 yilga kelib biz viloyatda ruy bergan uzgarishlarni boshkacha raqamlarda kuramiz. 2000 yilda jami cugʻoriladigan qishloq xoʻjalik yerlari 453,2 ming gektarni tashkil qiladi. Bunda, kuchsiz shoʻrlangan yerlar 216,9 ming gektar yoki 48,0%, oʻrtachasi 63,3 ming gektar yoki 14,0%, kuchlisi 31,5 ming gektar yoki 7,0%, jami shoʻrlangan yerlar 311,7 ming gektar yoki 68,9% gacha yani 10 yil davomida shoʻrlangan ekin yerlarining maydoni deyarli 10% ga kupayganligini kuramiz (L.Tursunov va b., 2008). Raqamlarning dalolat berishicha, viloyat dexkonchiligida kuchsiz shoʻrlanayotgan ekin yerlarining salmogi oshayotganligi katta xavf tugdirmokda. Hozirgi kunda viloyatning barcha tumanlari xoʻjaliklarida ekin yerlarining meliorativ holatiga, jumladan, xoʻjaliklarda va xoʻjaliklar aro kollektor-zovurlarning ish faoliyatiga kam eʼtibor berilganligi, kuzgi-kishgi shur yuvish ishlari sifatli bajarmaganligi va shunga oʻxshash zaruriy meliorativ tadbirlar reja asosida amalga oshirilmayotganligini koʻrsatish lozim

Cugʻoriladigan tipik va och tusli boʻz hamda boʻz-utloki tuproqlarning xaydalma qatlamida gumus 0,8-1,1 (1,2) % ni tashkil qiladi. Albatta, bu tuproqlarda gumus moddasi kam bulganligi sababli barcha oziqa elementlari (NPK) yetarli emas. Bu tuproqlar M.M. Toshkuziyev (2006) malumotlariga kura, gumus moddasi bilan kam taminlangan tuproqlar guruxini tashkil qiladi. Yuqorida keltirilgan kiskacha malumotlarni umumlashtirib aytish mumkinki, Qashqadaryo

vohasida boʻz tuproqlardan foydalanishda uta murakkab muammolar vujudga kelmaydi. Chunki bu tuproqlar barcha qishloq xoʻjalik ekinlarining rivojlanishi uchun makbul sharoitlarga ega. Birok, bu urinda och tusli boʻz va boʻz-utloki tuproqlar tarqalgan xududlarda sizot suvlari satxi 1,5-2,5 m chuqurlikda bulishi, ularning biroz minerallasganligi hamda chet xududlarga okishi uchun sharoitning cheklanganligi munosabati bilan kayta shoʻrlanish jarayoniga duchor boʻlishini aytish mumkin (Tursunov va boshkalar, 2008).

Qashqadaryo vohasida tuproqlarning gorizontal va vertikal mintakaviylik konuniyatlari uz aksini topgan. Xar bir tuproq tipi oʻziga xos genetik qatlamlarga ega boʻlib, vohasining murakkab geomorfologik-litologik tuzilishi bu yerda shakllangan tuproqlarning mexanik tarkibini qatlamlararo uzgarishiga taʻsir koʻrsatadi. Vohadagi turli genetik tipga mansub tuproqlar agrokimyoviy, agrofizikaviy va meliorativ xossalari hamda unumdorlik koʻrsatkichlari jihatidan farqdanishga ega.

Meliorativ nuktai nazardan vohada cugʻoriladigan och tusli boʻz tuproqlar esa yaxshi yer resoʻrlari hisoblansada, ikkilamchi shoʻrlanishga tez moyillik qiluvchi doimiy ravishda profilaktik meliorativ tadbirlarni olib borishni talab qiladi.

Qarshi vohasi iqlimi kontinental quruq subtropik iqlimning butun xususiyatlarini oʻzida aks ettiradi (I.P.Gerasimov (1933), L.N.Babushkin (1956,1959)). Turon past-tekisligining shimoliy qismi boʻlgan Oʻrta Osiyo hududida kontinental quruq subtropik iqlim quyidagi belgilarga ega: qish faslida ham vegetatsiyaning davom etishi; yoz faslida ochiq (bulutsiz) kunlarning ustunligi va oʻrta haroratining 300 S atrofida tebranishi; kun va tun hamda sutkalik rejimda katta haroratlar farqi; atmosfera yogʻin-sochinlarining qish-bahor faslida ustunligi, yoz faslida yogʻingarchilikning boʻlmasligi; oʻsimlik va hayvonot dunyosi hamda tuproq hosil boʻlishjarayoniga faol taʻsir etuvchi – nam va iliq bahor, juda quruq yoz faslining ifodalanishidir. Atmosfera qurgʻoqchiligi taʻsirini koʻpchilik holda issiq havo oqimi yanada kuchaytiradi. Issiq havo oqimi Qashqadaryo havzasiga unga yaqin joylashgan qum sahrolari va Afgʻoniston tomondan kelishi mumkin. Bu issiq havo oqimi atmosfera qurgʻoqchiligi davrining oʻrta qismida namoyon boʻladi. Agar bu xildagi qurgʻoqchilik davom etish vaqtida tuproq qatlamlarida namlik yetarli boʻlmasa, barcha oʻsimliklar oʻz vegetatsiyasini toʻxtatadi. Bu hodisa lalmikor dehqonchilik maydonlarida juda shiddatli oʻtsa, sugʻoriladigan maydonlarda esa uning taʻsirini sugʻorish jarayoni natijasida kamaytirish mumkin.

Qashqadaryo havzasi murakkab geologik, geomorfologik, tuproq va iqlim sharoitlariga ega boʻlganligi sabab xilma-xil oʻsimlik qoplamiga ega. Oʻsimlik dunyosining xilma-xilligi mazkur hudud yotqiziqlarining litologiyasi, mexanik tarkibi, shoʻrlanish darajasi va boshqa xususiyatlari bilan belgilangan, uning sharqiy – togʻ va togʻoldi hududida, bu oʻlkalar uchun hos boʻlgan tuproq-iqlim va oʻsimlik dunyosi harakterligidir. Oʻsimlik qoplami havo haroratining quruqligi

hamda namlik kam sharoitda efermer va kserafit o'simliklarning mavjudligi bilan harakterlanadi. Bularga qum sahro tuproqlari o'simligi (psammofitlar), gipsli sahro (gipsofitlar) va sho'rxok (galofitlar) o'simliklar guruhi kiradi. Bu tipdagi o'simlik qoplami yer yuzasida to'liq qoplam hosil qila olmaydi va ular tomonidan qoldirilgan organik qoldiq ham uncha ko'p emas (L.YE.Rodin (1958), D.G.Mahmudova (1974).

Qarshining iqlim xususiyatlari uning geografik o'rni bilan belgilanadi. Bu yerda quyosh nur sochib turadigan davr ancha uzoq davom etadi va o'rta hisobda 2600-3000 soatga to'g'ri keladi. Yoz fasli 155-160 kunga cho'ziladi. Quyosh radiatsiyasining yillik yalpi miqdori 6700-7000 MDj/m² dan kam bo'lmaydi. Yillik radiatsiya balansi esa 2310-2520 MDj/m² atrofida bo'lib, viloyat hududining deyarli hamma joyida yil davomida musbatdir.


Iqlim sharoitining shakllanishi va xususiyatlariga ko'ra Qashqadaryo viloyati hududi subtropik iqlimlar guruhiga mansub.

Qarshida yillik yog'in miqdori 145-230 mm ni, 650 mm ni tashkil etadi. Ayni paytda yillik yog'inlardan 90-95 foizi noyabr-may oylarida tushadi

Tadqiqotlarimiz davrida Qarshi vohasida eng past harorat -180S, eng yuqori harorat esa +460S gacha bo'lishi qayd qilindi. Qarshi shahri atrofida yanvarning o'rtacha harorati 00S dan pastroq bo'lishi mumkin .

Kuzatuv yillaridagi asosiy meteorologik ko'rsatkichlar
(Qarshi meteostansiyasi ma'lumotlari bo'yicha)

Oy-lar	De-kada-lar	O'rtacha havo harorati, 0S	O'rtacha havoning nisbiy namligi, %	Yog'in miqdori, mm
I	1	6,5	64	4,7
	2	0,4	77	2,6
	3	6,5	72	36,2
II	1	8,6	78	9,5
	2	11,2	74	11,9
	3	11,5	66	1,2
III	1	7,7	61	8,2
	2	9,3	62	9,2
	3	14,4	58	4,9
IV	1	17,7	52	00
	2	22,2	50	9,4
	3	23,3	48	0,4
V	1	21,1	45	-
	2	24,5	39	-
	3	25,7	37	-
VI	1	27,5	35	-
	2	26,2	42	-
	3	31,1	36	-
VII	1	31,4	35	-
	2	39,2	36	-
	3	31,0	35	-
VIII	1	30,8	35	-
	2	27,6	40	-
	3	29,8	28	-
IX	1	25,8	37	-
	2	25,6	43	-
	3	18,8	52	-
X	1	14,2	59	-
	2	14,1	64	3,0
	3	14,7	63	3,0
XI	1	10,2	72	20,8
	2	5,1	81	7,7
	3	6,6	72	00
XII	1	5,2	81	2,8
	2	5,5	86	14,9
	3	6,0	87	12,7



1-rasm. Qarshi sharoitining iqlim ko'rsatkichlari
(o'rtacha ko'p yillik)

2-jadval

Qarshi sharoitida mutloq manfiy, mutloq musbat,
oʻrtacha oylik havo harorati va oʻrtacha oylik yogʻin miqdori (oʻrtacha koʻp yillik)

Meteo- stansiya	Harorat, °S va yogʻin miqdori, mm	O y l a r											
		I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
Qarshi	mutloq manfiy	-11,0	-10,0	-3,0	3,0	10,0	14,4	16,6	14,0	6,0	1,0	-10,0	-18,0
	mutloq musbat	24,0	26,0	36,0	39,0	42,0	43,0	44,9	44,02	40,0	35,01	28,09,	26,0
	oʻrtacha oylik harorat	3,4	7,4	11,3	18,5	24,1	28,7	31,4	9,1	22,71,	6,54,0	7	4,1
	oylik yogʻin miqdori	37,4	30,0	23,0	35,8	10,8	--	3,4	0,4	1		33,2	34,5

1.2. Ilmiy tadqiqotning manba va metodlari

Tadqiqotlarimiz obyekti qilib Qarshi vohasida ekilgan Topinamburning “Fayz baraka” va “Mu’jiza” navlari hisoblanadi. Tajribalarimiz asosan Qarshi shahrida Qarshi davlat universiteti agrouchastkasida ekilgan topinamburning har ikkala navi ustida olib borildi.

Qarshi vohasining och tusli bo‘z tuproq sharoitida topinambur tuganaklarini ekishning optimal vaqti va meyorini aniqlash maqsadida tuganaklar 70x30 va 90x25sm sxemada vazni 40-50 g li tugunaklarni sharoitga qarab esa ekish normasi gektariga 6-7 s dan 20 s gacha qilib belgilandi. Ekishdan oldin so‘lib qolgan tugunaklar 1-1,5 kun davomida suvga solib qo‘yildi.

Fenologik kuzatuvlar I.N Baydeman (1974), Sutkalik gullash ma’romi A.N.Ponamarev, ildiz tizimi Taranovskiy (1957), Oziq massa miqdori Konyushkov (1961) metodlari asosida, o‘sinh va rivojlanishini har 5 kunda o‘lchash orqali o‘rganildi.

1.3. Topinamburning madaniylashtirish tarixi va xalq xo'jaligidagi ahamiyati

Topinambur yovvoyi florada Shimoliy Amerikada o'sadi. Amerika qit'asiga yevropaliklar kelishidan oldin xindular ushbu o'simlikni madaniylashtirib o'z ehtiyojlari uchun ishlata boshlaganlar. 1610 yilda Angliya va Fransiya keltirildi va qisqa muddat ichida juda keng tarqaldi. Shu davrlarda Angliya bozorlarida qimmat narxlarda sotila boshlagan. Topinambur Rossiya XIX asrda, Markaziy Osiyoga esa XX asrning 30-40 yillarida kirib kelgan. Hozirgi vaqtda topinambur Fransiya katta-katta maydonlarga ekiladi. U Polsha, Vengriya, Skandinaviya yarim orolidagi mamlakatlarda, Angliyada, Amerika va Osiyo qit'asidagi mamlakatlarda ham ekiladi.

Topinambur oziq-ovqat zikini sifatida ham qadimgidan ma'lum. Dastlab u, asosan, oziq-ovqat maqsadlari uchun ekilgan. Hozirgi vaqtda ham ko'p ishlatiladi. Masalan, Fransiya kartoshka singari oziq-ovqatga ko'p ishlatiladi.

Hozirgi Kanada va AQSH mamlakatlari hududida qadimgidan yashab kelgan mahalliy hindular bu o'simlikni avvaldan bilishgan va yetishtirib kelganlar. Ko'rinishidan kungaboqarga o'xshash, ammo sap-sariq gullari kungaboqarnikidan ancha kichik bu o'simlik ildizida juda mazali kartoshkasifat meva tugadi. Ana shu mevaning foydali sifatlarini yaxshi bilgan mahalliy xalq uni gulxanda pishirib yoki xomlayin iste'mol qilib kelganliklari manbaalardan ma'lum. Bu mevaning nomi ham aynan hindularning bir qabilasi nomidan olinganligi tarixlarda bor...

Kanada do'konlaridan topinamburni –“sunroot”, “sunchoke”, “earth apple” yoki “topinambour” deb izlab topsa bo'ladi. U bu yerda juda serob. Uning ildiz mevasi xuddi kartoshkaga o'xshasada, hajman undan ancha kichikroqdir. Topinambur tarkibida juda ko'p miqdorda inulin moddasi borligi uchun qandli diabet kasalligiga juda ham foydalidir. Yosh o'tishi bilan paydo bo'ladigan ko'zning xiralashuvi kasalligini oldini oladigan dori ham aynan topinambur ildizidir.

O'simlikning karbonat angidridni yutib kislorod chiqarish xususiyati ham ma'lumki, bu iqlim o'zgarishi sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek topinambur bir vaqtda shamol va suv eroziyacidan saqlab biomeliorant sifatida yerga ishlov berishga ko'maklashadi. Topinambur tuguraklarining yangi uzulgani, qovurilgani, qaynatilgani va konservalangani ozuqa sifatida yaroqli ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Ular qandli diabet, ateroskleroz, infarkt va boshqa ko'plab kasalliklarda davolash xususiyatlariga ega. Tuguraklar tarkibidagi inulin moddasining ko'pligi tufayli undan qandli diabetlar uchun sharbat, qiyom, kokteyl, limonad va turli boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqishda foydalaniladi.

O'zbekistonda topinamburni yetishtirish birqancha muhim vazifalarni yechishga imkon yaratadi. Muhim tomoni shundaki, ushbu aytib o'tilgan mahsulotlarni ham vatandoshlarimiz uchun, ham xorijlik iste'molchilar uchun yetishtirishga barcha imkoniyatlar mavjud. Shu yo'l bilan O'zbekiston Respublikasining innovatsion iqtisodiyoti yangi ish o'rinlarini yaratish, vatanimiz ilmiy-asoslangan va resurstejamkor texnologiyalari asosida mahalliy xom ashyodan eskport mahsulotlariga yo'naltirilgan va importning o'rnini qoplaydigan ishlab chiqarishni ko'zlayotir. Mamlakat olimlarining innovatsion usullari hozirning o'zidayoq iqtisodiyotning turli sohalarida mahsulot ishlab chiqarishga chiqindisiz ishlaydigan texnologiyalarni tadbiq etish bo'yicha yagona tizimni barpo etishga imkon yaratadi.

Jahon tajribasida jo'xori, arpa, suli va kartofeldan olinadigan yangi mahsulot - glyukoza-fruktoza qiyomi muhim o'rin olgan. Faqat MDH mamlakatlarining o'zida oziq-ovqat sanoati 3 million tonna ana shu mahsulotga ehtiyoj sezadi. Biroq bugungi kunga qadar uning keng ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilmagan. Butun dunyo aholisining soni tez o'smoqda, barcha mamlakatlar aholisini ekologik toza va sifatli mahsulot bilan ta'minlash kundan kunga qiyinlashib bormoqda. Shu munosabat bilan fruktoza qandini topinambur tuguraklaridan sanoat yo'li bilan olish yo'lga qo'yilgan bo'lib, ko'rsatgich 6 dan 12 t.gacha/ga ni tashkil qiladi. Bu ushbu sharoitda qand lavlagisi, shakarqamish yoki jo'xoridan ko'p miqdordir. Shuningdek, topinambur ishlab chiqarishdagi mutaxassislar bu qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarish har bir hudud uchun o'z oziq-ovqat bozoriga ega bo'lish, qishloq xo'jaligi kompleksini mustahkamlash va

energetika muammosini hal qilishda imkon yaratishi uchun “yer noki”dan bioetanol ishlab chiqarishga ham qiziqish bilan qaraydilar. Shunday qilib topinambur bu faqatgina musaffo oziq-ovqat emas, balki bioyoqilg'i sanoati uchun xomashyodir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda sanoatning turli sohalarida butkul yangi imkoniyat va istiqbollarni ochgani uchun topinamburning “Fayz Baraka” navini yurtimizda yetishtirish g'oyasining kelajagi porloq ekanligini ko'rsatib o'tish o'rinlidir. Uchrashuvda bu haqda alohida to'xtaldi. Endi bu g'oyani amalda tadbqiq etish qoldi, umid qilamizki mutaxassis va olimlarimiz bu vazifaning uddasidan chiqadilar va natijasini tez orada ko'ramiz.

Topinambur xo'jalikning turli sohalarida ko'p ishlatiladi. O'simlikning tugunaklarida inulin moddasi ko'p (quruq moddasiga nisbatan 30-40% gacha) bo'lgani uchun, asosan, texnikaviy maqsadlarda ekiladi. Inulinni gidrolizlash yo'li bilan fruktoza olinadi. Topinambur tugunaklaridan fruktozadan tashqari, spirt, vino, vino sirkasi, ozuqa achitqilari, pivo va boshqa mahsulotlar ham olinadi.

Topinamburni texnikavny maqsadlarda va oziq-ovqat uchun ekish katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga uning yem-xashak sifatidagi ahamiyati ham ortib bormoqda. Chunki uning ko'k massasi ham, tugunaklari ham chorva mollari uchun yaxshi oziq hisoblanadi. Topinamburning 100 kg tuganagi tarkibida 22- 25 ozuka birligi, 1,5 kg yengil xdzm buladigan oksil, poya va barglarida 22-23 ozika birligi xamda 1,8 kg yengil xazm buladigan oksil mavjud.

Sanoatda inulin, pektin, fruktoza, sellyuloza, etanol, butanol spirtlari va boshqa maxsulotlarni ishlab chikarishda asosiy xom-ashyo xisoblanadi. 100 kg topinambur tuganagidan 9-10 kg fruktoza va 7-8 l spirt olinadi. Bu esa, kand lavlagi va kartoshkaga nisbatan 1,5-3,5 marta kup demakdir.

Bugungi kunda dunyo buyicha qandli diabet kasalligidan 150 milliondan ortik axoli aziyat chekmokda. Markaziy Osiyoning 2 foiz, respublikamizda esa 3,0-7,8 foiz axoli ushbu kasallikka chalinganligi va yildan-yilga kandli diabet bilan ogriyotgan bemorlar soni ortib borayotganligi aniklangan Topinambur tarkibida 20 foizgacha kuruk modda bulib, uning asosiy kismini fruktoza polimerining gomologi bulgan inulin tashkil etadi. Polisaxarid shaklidagi inulinni gidroliz kilish natijasida kand diabeta bilan kasallangan bemorlar uchun zararsiz bulgan fruktoza olinadi. Topinambur tarkibida klechatka, mineral moddalardan temir, marganets, kalsiy, magniy, kaliy, natriy va kremniy mavjud bulib, temir, kremniy moddalari mikdori buyicha kartoshka, sabzi va lavlagidan ustup turadi. Shu bilan birga topinambur tugunaklari tarkibi- da oksil, pektin, amnnokislotalar, organik va moy kislotalari uchraydi. Topinambur tarkibidagi V1, V2 va S vitaminlarining mikdori kartoshka, sabzi va lavlagidan 3 marotaba yukori.

Topinambur tugunaklari tarkibida 3,2-5,4 % oksil, 17 xil amnnokislotalar bulib, sakkiztasi almashtirib bulmaydigan, jumladan, valin, gistidin, izoleyotin, leyotin, lizin, metionin, treonin va fenilalanin aminokislotalari xisoblanadi.

Xalk tabobatida topinamburning ildiz tuganagi, yosh barglari va novdalaridan kandli diabet, gipertoniya, taxikardiiya, yurak ishemiya kasalligi, tuberkulyoz, ateroskleroz, kam konlik, mador kurishi, ayrim teri va boshqa kupgina kasalliklarni dovolashda foydalanilgan. Ozik-ovkat sanoatida kandli diabet bilan ogrigan bemorlar uchun turli xil parhez maxsulotlarini ishlab-chikarish uchun asosiy xom-ashyo sanaladi, ya'ni topinambur tuganagidan kupchilik rivojlangan mamlakatlarda sharbatlar, chipslar, kandolatchilik maxsulotlari, achitkilar, gusht va undan tayyorlanadigan maxsulotlarini sifatini oshirish uchun kullaniladigan tabiiy ku- kunlar ishlab chikarilmokda. Uy sharoitida kandli diabet bilan ogrigan bemorlarning kundalik ovkatlanish tartibiga topinamburdan turli xil mazali taom va salatlar tay- yorlab kiritilishi, ularning kon tarkibidagi kand ch mikdorini doimo bir xil saqlab turish bilan bir szaktda organizmni zarur vitamin va mineral moddalar bilan ta'minlash orkali immunitetni oshiradi.

Topinamburning is gazini yeamarali uzlashtirish xususiyatidan foydalangan xolda sanoat markazlari atroflarida dskorativ usimlik sifatida yashil mintakalarni tashkil etish bilan atrof muxitining ekologik xolatini yaxshilash xam mumkin. Chunki, bir gektar maydondagi topinambur usimligi usuv davri davomida 6 tonna SO, ni, bir gektar maydondagi urmonzor esa, 3 tonnani uzlashtirilishi aniklangan.

Topinamburning poyasi va barglari tarkibida vitaminlar ko'p, quruq moddalar 25-30% bo'ladi. Ular orasida uglevod kompleksiga kiradigan moddalar ham juda ko'p, kletchatka kam bo'ladi. Protein tarkibiga esa zarur barcha aminokislotalar kiradi. Topinamburning ko'k massasi tarkibida ma'lum miqdorda inulin bo'yaib, u chorva mollari organizmida oshqozon shirasi ta'sirida yengil hazmlanadigan fruktozaga aylanadi. Shunga ko'ra, topinambur tarkibidagi uglevodlar mollarning katta qornidagi mikroorganizmlarning faoliyatiga qulay ta'sir ko'rsatadi va boshqa ekinlardagiga, shu jumladan, ildizmevalardagiga qaraganda ko'p energiya beradi. Uglevod kompleksidagi moddalarning hazmlanish koeffitsiyenti juda yuqori bo'lib, 78-80% ga yetadi.

Topinamburning ko'k massasini mollarga yangiligicha berish mumkin. Uni deyarli hamma mollar ishtaha bilan yeydi. 100 kg ko'k massasining to'yimlilign 20-25 oziq birligiga teng keladi. Topinambur mo'ynali hanvonlar va ovchilik xo'jaliklarida ham hayvonlarni ko'kat oziq bilan ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Unnng ko'k massasidan pichan va o't uni tayyorlanadi. Topinamburning poyasi tarkibida juda ko'p, quruq moddasiga nisbatan 25-30%, bargli poyasida 15-20% shakar bo'ladi. Topinamburdan bostirilgan silos yaxshi saqlanadi va uni qoramollar, qo'y-echkilar va boshqa hayvonlar juda ishtaha bilan yeydi. Topinambur silosining 100 kg 18-25 oziq birligiga teng keladi. Har 1 kg oziq birligi tarkibida 80-90 g hazmlanadigan protein bo'ladi. Keyingi yillarda deyarli hamma yerda topinamburdan silos bostiriladigan bo'ldi. Mamlakatimizning noqoratuproq zonasi va ayniqsa, shimoliy rayonlarda topinambur serhosil silosbop ekinlardan biri hisoblanadi.

Mollarga berishda ayniqsa uning tugunaklari katta ahamiyatga ega. Ular tarkibida 25-30% gacha quruq moddalar, shu jumladan, 10-15% inulin va 2% protein bo'ladi. Tugunaklar oqsili ham ko'k massasini kabi to'la qimmatga ega bo'ladi. Tugunaklari V grupp vitamiinlarga va mineral moddalarga boy, shuning uchun yosh mollarga juda foydali bo'ladi. Uning to'yimliligi deyarli kartoshkanikiga teng keladi, ya'ni 100 kg oziq 23-30 oziq birligiga teng keladi.

Ma'lumki, yurtimizda o'sadigan mahalliy topinambur (Yer noki) o'simligi xalq tabobatida bir qancha kasalliklarga davo shifobaxsh dorivor sifatida qo'llanib kelingan. Bugungi kunga kelib topinamburning yana bir muhim xususiyati — uni sanoat miqyosida qo'llash asosida ekologik toza mahsulot olish hamda katta iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin ekanligi aniqlandi.

Mamlakatimiz yosh olimlari tomonidan ushbu o'simlikning "Fayz-baraka" navi asosida qog'oz ishlab chiqarish uchun yagona xomashyo sanalgan sellyuloza olishning innovatsion texnologiyasi yaratilgani ilm-fan sohasida olamshumul yangilik bo'ldi. Endilikda Toshkent kimyo-texnologiya institutining sellyuloza va yog'ochsozlik texnologiyasi kafedrasida olimlari tomonidan yaratilgan mazkur loyiha asosida sanoat miqyosida topinambur o'simligidan olingan tolali xomashyodan (sellyuloza) "Namangan qog'ozi" korxonasida yozuv qog'ozi ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi va uning turli sifat ko'rsatkichlari aniqlandi. Respublikamizda sellyuloza va uning efirlariga hamda qog'oz mahsulotlariga bo'lgan talab yil sayin oshib bormoqda. Endilikda mahalliy sharoitda o'suvchi topinambur o'simligini yaratilgan texnologiya orqali kimyoviy qayta ishlab, turli sanoat korxonalarining sellyulozaga bo'lgan ehtiyojini qondirish va ularni to'la quvvatda ishlashini ta'minlash imkoniyati yuzaga keldi.

Hozirda Respublikamizda sellyuloza asosan paxta lintidan olinmoqda. Lekin paxta lintining ishlatilish sohasi nihoyatda kengligi, qolaversa sellyuloza va mahsulotlar tannarxining qimmatlashishiga olib kelmoqda. Topinambur o'simligining "Fayz-Baraka" navi asosida sellyuloza olishning sanoat miqyosida ishlab chiqarilishi paxta sellyulozasiga nisbatan 2-2,5 barobar arzoniga tushishi hisoblab chiqilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sellyuloza miqdori sellyuloza efirlari hamda qog'oz mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarining faqat 10-12 foiz talabini qondirib kelmoqda xolos.

Jahon tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, keyingi vaqtlarda yog'och resurslari kamyob, ammo o'simlik biomassalariga boy bo'lgan Xitoy, Hindiston, Gollandiya, Ispaniya,

Fransiya, AQSH (janubiy shtatlari) va Lotin Amerikasi mamlakatlarida bir yillik o'simliklardan sellyuloza olish texnologiyasi rivojlanib bormoqda. Biroq bu texnologiyalar u yoki bu tarzda yog'ochdan sellyuloza olish texnologiyasini undagi mavjud barcha kamchiliklari bilan ko'chirib olishdan iborat bo'layapti.

Ammo shuni e'tirof etish lozimki, Finlyandiyaning Chempolis va IRM kompaniyalari bug'doy somoni va qamishni qayta ishlab, undan qog'oz ishlab chiqarishning ekologik jihatdan toza texnologiyasini yaratishdi. Bu texnologiya hozircha laboratoriya varianti mavjud xolos.

Prezidentimizning 2008 yil 18 noyabrda «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni asosida Respublika Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankining sa'y-harakatlari bilan 2009 yilning oxirlarida qayta tiklangan, Markaziy Osiyoda hozircha yagona hisoblangan «Namangan qog'ozi» mas'uliyati cheklangan jamiyatida asosan yozuv va ofset qog'ozlari ishlab chiqariladi. 2012 yili poytaxtimizda o'tkazilgan 4-xalqaro Sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasida yosh olimlarimiz tomonidan topinambur o'simligi poyasidan sellyuloza efirlari hamda qog'oz turlarini ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan sellyuloza olish texnologiyasiga qiziqish bildirildi hamda uni amaliyotga joriy etishga kirishildi.

Kelgusi yildan boshlab Respublikamizda topinambur o'simligini 300 gektardan ziyod maydonda yetishtirish ko'zda tutilmoqda. O'simlik urug'lari ko'paytirilganidan so'ng undan keng miqyosda foydalana boshlanadi. Aytish mumkinki, 300 gektar maydonga ekilgan o'simlik poyasi "Namangan qog'ozi" korxonasini yuz foizlik sellyuloza bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

II BOB. TOPUNAMBURNI BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

2.1. O'sish va rivojlanishi

Topinambur (*Heliantus tuberosus* L.) yoki yer noki ko'p yillik o'simlik bo'lib, murakkab guldoshlar oilasiga taalluqli. Topinamburning "Fayz-Barka" navi 2006 yilda, "Mu'jiza" navi esa 2011 yildan O'zbekiston Davlat reyestriga kiritilgan.



2-rasm. Topinamburning umumiy ko'rinishi



3-rasm. Topinamburning gullagan ko‘rinishi



4-rasm.

Topinamburning «Fayz baraka» navining tunganagi

Topinamburning “Fayz baraka” navi O‘zO‘ITI da yaratilgan bulib, 2006 yil O‘zbekistan respublikasi xududida ekish uchun tavsiya etilgai kishlok xo‘jalik ekinlari davlat reyestriga kiritilgan. Nav res- publikamizning barcha viloyatlariga ekish uchun tavsiya etilgan bulib, usuv davri 180-190 kunni tashki l etadi. Tuganaklar mart oyidan unib chika boshlaydi. Uyeimliklarning yoppasiga gulga kirishi avgust oyi- da kuzatiladi. Xosil tunganaklari shakllanishining boshlanishi iyun, pishib yetilishi esa, oktabr oyi- ning oxirlariga tugri keladi. Usimlik balandligi 4 m, poyasi silindr shaklda, poyasining diametri 2,0-2,5 sm, 1 metr poyada 12-15 ta buginlar mavjud bulib ularning uzunligi 3-6 sm ni tashkil etadi. Poyasi yashil va urtacha tuklangan. Bargi butun, shakli tuxumsimon bulib uchki kismi ingichkalashgan. Barg kirralari tishsimon. Bargining uzunligi 20 sm, kengligi 12 sm. Barg bandining uzunligi 7-8 sm. Gullari - savatchalar bulib, ularning diametri 4 sm, gultojibarglari - sarik. Tuganaklary - och jigarrang,

bukilgan, uzunchok ovalsimon uzunligi 6 sm, uzunligi 3 sm. Yuzasi notekis, kuzlari burtib chikkan 5-8 katorli. Pustlogi yupka, magzi - ok rang. Tuganak mevalarning vazni 30-100 g. Bitta usimlikda 150 donagacha tuganak mevalar xosil kiladi. Tuganak mevalarning xosildorligi 40-70 t/ga, kulay sharoitda 100 tonnagacha, kuk massa xosildorligi esa 30-50 t/ga.

Topinamburning yangi "Mu'jiza" navi UzUITI da yaratilgan bulib, 2011 yil Uzbekiston respublikasi xududida ekish uchun tavsiya etilgan kishlok xo'jalik ekinlari davlat reyestriga istikbolli nav sifatida kiritildi. Nav respublikamizning barcha viloyatlariga ekish uchun tavsiya etilgan bulib, usuv davri 180-190 kunni tashkil etadi. Tuganaklar mart oyidan unib chika boshlaydi. Uyeimliklarning yoppasiga gulga kirishi avgust oyi da kuzatiladi. Xosil tuganaklari shakllanishining boshlanishi iyun, pishib yetilishi esa, oktabr oyining oxirlariga tugri keladi. Usimlik balandligi 2,5-4 m, poyasi silindr shaklda, poyasining diametri 2,0-2,5 sm, 1 metr poyada 17-20 ta buginlar mavjud bulib ularning uzunligi 5 sm ni tashkil etadi. Poyasi yashil kuchli antotsian rangli va urtacha tuklangan. Bargi butun, shakli chuzilgan tuxumsimon bulib uchki kismi ingichkalashgan. Barg kirralari tishsimon. Bargining uzunligi 22 sm, kengligi 10 sm. Barg bandining uzunligi 4-5 sm. Gullari - savatchalar bulib, ularning diametri 4 sm, gultajibarglari - sarik. Tuganaklari - och jigarrang, noksimon, uzunligi 7 sm, uzunligi 3 sm. Yuzasi - kuchsiz notekis, kuzlari burtib chikkan 5-7 katorli. Pustlogi - yupka, magzi - ok rang. Tuganak mevalarning vazni - 40-220 g. Bitta usimlikda 35—40 donagacha tuganak mevalar xosil kiladi. Tuganak mevalarning xosildorligi 40-70 t/ga, kulay sharoitda 100 tonnagacha, kuk massa xosildorligi esa 35-50 t/ga.

Qarshi sharoitida topinamburni mart oyining oxirlarida ekish maqsadga muvofiq. Buning uchun yer yaxshilab yumshatiladi, Tajribalarimiz davomida balandligi 30-35 santimetr, eni 50-55 santimetr holatda pushta olib, uning ustki qismi uzunasiga ikkiga bo'lib, o'sha joyga topinambur (yer noki) kartoshkasi 20-25 santimetr oraliqda va 8-10 santimetr chuqurlikda bir donadan ekildi. Ekin unib chiqqach, begona o'tlardan tozalanib, chopiq qilindi. Mineral va mahalliy o'g'itlar berilmadi.. Yoz paytlari har 6-10 kunda sug'oriladi. Iyul oylariga borib, balandligi 1-1,5 metrga yetdi. Shu payt uning ko'k barglari terilib, toza suvda 2-3 marta chayilib, soya joyda quritiladi. 1-2 kunda giyoh tayyor bo'ladi. Bizning sharoitda u sentabr oyining o'rtalarida sariq holda gulladi. Balandligi 3-4 metrga yetdi. Kartoshkasi esa noyabr oyining oxirlarida tayyor bo'ldi. Mamlakatimizda topinamburni kungaboqar bilan turlararo chatishtirish bo'yicha olnb borilayotgan ishlar alohida ahamiyatga ega Buning natijasida yangn biologik va xo'jalik belgi xususiyatlarga ega bo'lgan o'simliklar (topinambur-kungaboqar duragayi) olindi. Ulardan ko'pining tuganaklarn g'uj joylashgan va bir tekis bo'lganligi hosilni mexanizatsiya yordamida yig'ib olishga va hosil nobudgarchilignni kamaytirishga imkon beradn. Topinamburning bunday duragaylarnni almashlab ekish sxemasiga kiritish mumkin.

Ayrim duragaylarining tugunaklarni va ko'k massasi tarkibida uglevodlar (shu jumladan, inulin), oqsil va boshqa oziq elementlari ko'p bo'ladi. Bulardan tashqari, topinamburning sovuqqa va qishga, kasalliklarga chidamli, juda moslashuvchan formalari ham chiqarildi. Duragaylashda geterozis hodisasi namoyon bo'ladi va u vegetativ usulda ko'paytirish yordamida keyingi bo'g'inlarda mustahkamlanib boradi.

Topinambur navlari va duragaylari ko'k massa va tugunaklari hosilining nisbatiga qarab 3 gruppaga bo'linadi.

1. Silos bostirish uchun, ya'ni, asosan, ko'k massa hosilini mo'ljallagan va u 70% oziq birligini tashkil etadigan topinambur.
2. Tugunak olish uchun, bunda tugunaklar asosan texnikaviy maqsadlarda ishlatiladi.
3. Ham tugunak, ham silos massasi uchun va ham silos massasi, ham tugunak olish uchun ekiladi. Topinamburning bu nav va duragaylardan yuqori tugunak va ko'k massa hosili olinadi. Shuning uchun ular eng ko'p tarqalgan.

Topinamburning nav va duragaylarni vegetatsiya davrining uzoq qisqaligiga qarab ertagi, o'rtagi va kechkiga bo'linadi. Ularning vegetatsiya davri 120-140 kundan 180-200 kungacha yetadi. Turarlari duragaylash topinamburning har xil maqsadlarda ishlatiladigan ertagi formalari chiqarishga imkon beradi, bu esa uning tarqalish arealini yanada kengaytiradi.

Topinamburning tugunaklari yerda qishlaydi, shuning uchun u ko'p yillik o'simlik deb ataladi. Chunki har yili vegetatsiya davri oxirida tugunagidan tashqari, hamma organlari qurib qoladi, tugunaklari tarkibida shakar ko'p bo'lgani uchun ular hamma joyda yaxshi qishlaydi. Bahorda ulardan yana 1-3 tadan poya o'sib chiqib, tup hosil qilinadi. Shu yo'l bilan o'simliklarining yangilanishi bir necha o'n yillar davom etadi. Lekin o'simliklari yil sayin qalinlashib borishi tufayli bir necha yildan keyin hosildorlik pasayib ketadi. Lekin tajribalardan ma'lum bo'lishicha, noqoratuproq zonaning shimoli-g'arbiy, markaziy va shimoliy oblastlarida topinambur plantatsiyalaridan 10-15 yil, ancha janubiy rayonlarda 4-5 yil, mamlakatimizning eng janubida esa bir maydonga bir yil ekish maqsadga muvofiqdir.

Topinambur bahorda dastlab juda sekin o'sadi va asosan, ildiz sistemasi shakllanadi. Faqat yozning oxirida (iyul-avgust oylarida, janubiy esa avgust oxiri-sentabr boshlarida) poyasi eng ko'p o'sadi. Ana shu davrda 50% gacha ko'k massa hosili to'planadi, bo'yiga sutkalik o'sishi 4-5 sm ga yetadi. Keyin o'sish protsessi susayib, o'simliklar g'unchalash va gullash fazasiga kiradi. Vegetatsiya davri kech kuzgacha davom etadi. Iqlim sharoitining keskinligi tufayli noqoratuproq zonaning markaziy oblastlarida ko'p navlari yig'ib olinguncha gullashga, ancha shimoliy rayonlarda esa hatto g'unchalashga ham ulgurmaydi.

Topinambur tugunaklari kech, ya'ni Qarshi sharoitida iyul oyining oxirida, shimoliy rayonlarda avgustda hosil bo'ladi. Jadval hosil to'planishi esa yuqoridagiga muvofiq, sentabrning ikkinchi

yarmi va oktabr oyiga to'g'ri keladi. Tugunaklari to'kuzgi sovuq tushguncha shu o'saveradi. Vegetatsiya davri uzoq bo'lganligidan, hatto ertagi navlari va duragaylari ham shimoliy rayonlarda, odatda, yetilmaydi va mayda tugunak hosil qiladi. Hosili ham kam bo'ladi. Faqat janubiy rayonlarda topinambur eng yirik va tipik tugunaklar hosil qiladi. Shunga ko'ra, shimoliy rayonlarda topinambur, asosan, silos bostirish uchun ekiladi.

Topinambur issiklik va yorugsevar, kurgokchilikka chidamli ildiz tuganakli usimlik bulib, ildizi o'q ildiz 1-1,5 metr chukurlikgacha kirib boradi. Usimlik asosidan 1,5 metr radiusda yon ildizlari tarkaladi. Topinambur tabiiy yovvoyi xolda usganda kup yillik (poyasi xar yili kurib koladi, lekin tunganagi tuprok tagida sakdanadi), tunganaklar uchun yetishtirilganda esa bir yillik (tuganaklari yigib olinadi) usimlik xisoblanadi.

Poyasi yarim yogocheimon, silindr shaklida bulib, buyi 1,5 m dan 4,5 m gacha yetadi. Poyasi dagal, tuk tuxumsimon bargli, yirik sarik gullarining diametri 4-10 sm, bitta ildiz tunganagidan bir ne- chta poyalar xosil kiladi. Xar bir usimlikda urtacha 10-150 tagacha tuganak mevalar shakllanishi mumkin. Topinamburning yovvoyi turi respublikamizning deyarli barcha viloyatlarida tarkalgan bulib, yovvoyi "kartoshka gul" nomi bilan ataladi. Yovvoyi "kartoshka gul" madaniy navlardan asosan, tuganaklarining uta kiyshikligi va maydaligi bilan fark kiladi.

Topinamburning usuv davri respublikamizda urtacha 180-200 kun bulib, barshari tula kurib kolgandan keyin tuganaklari fiziologik pishib yetiladi.

Topinambur ekini uta moslashuvchan, tuprok tanlamaydi, xar kanday tuprokda usishi mumkin, lekin shurlangan, suv yigilib koladigan va unumdorligi past yerlarda tuganaklari maydalashib kam xosil beradi. Uzbekiston Usimlikshunoslik ilmiy-tadkikot institutida utkazilgan kuzatishlar natijasida topinambur usimligining usishi uchun eng kulay xarorat 18-30 °S bulib, usuv davrining birinchi oyida bir kunda (agrotexnik talablar tulaligicha bajarilganda) urtacha 1-1,5 sm, ikkinsi va uchinchi oylari 2-3 sm usishi, ozuka va namlik yetarli bulganda esa, ayrim kunlari bu kursatkich 3,5-4 sm ga yetishi aniklangan.

Usuv davrining 25-30 kunlari asosiy poyaning 5-8 barg kultiklaridan dastlabki bachki novdachalar shakllanadi. Ushbu bachki novdalardan asosiy poya zararlangandagina birlamchi shoxlar rivojlanadi. Usuv davrining 45-50 kunlari ildiz kismida shakli uzgargan poya-stolonlar rivojlana boshlaydi. Dastlabki ildiz tuganaklari esa, usuv davrining 55-60 kunlari ildiz bugzidan pastrokda tuprokning yuza katlamiga yakin xududlarda asta sekin shakllana boshlaydi. Odatda namligi yetarli bulgan kumlok tuproklarda tuganaklar ildiz asosida xalka xosil kilib joylashadi. Namlik yetishmaganda, berch tuproklarda esa, ildiz asosidan nisbatan uzokrokda betartib joylashadi.

Topinamburning bir tupidagi poyalar soni uzgaruvchan belgi bulib, tuganaklarning yirikligi- ga xam boglik xolda, odatda, bitta tuganakdan 1-8 donagacha poyalar shakllanadi va shundan fakat

3-4 tasigina yaxshi rivojlanishi kuzatiladi.

Topinambur avgust oyining oxirlarida (usuv davrining 110-115-kunlari) shonalash boskichiga kiradi va bu boskich bitta usimlikda 10— 12 kun, urugchilik kuchatzorida esa, yalpi shonalash boskichi 20-25 kun davom etadi.

Usimlik gullash boskichiga (120-130 kunlari) utganda esa usish sezilarli sekinlashishi, usimlik tula gullaganda esa usish butunlay tuxtashi kuzatiladi.

Topinamburning barg va poyalarining ustkiismi mayda dagal tukchalar bilan koplangan. Yoz oylarida kunduz kuni xarorat 40 °S dan kutarilganda barglar nisbatan uz turgorligini yukotadi. Birok, tungi salkin sharoitda asl xolatiga kaytachi.



5-rasm. Topinamburning gullagan ko‘rinishi



6-rasm. Topinambur gulining tuzilishi

Topinambur issiklik va yorugsevar, kurgokchilikka nisbatan chidamli ildiz tuganakli usimlik xisoblanadi. Usimlikni suvga bulgan talabi usuv davrining boskichlarida turlicha bulishi kuzatilib, dastlabki boskichlarda kurgokchilikka chidamliligi yukori bulsa, usuv davrining 3-5 oylarida esa, namlikka talabchanligi yukori bulishi (O‘zO‘ITI tajribalarida) kayd etiladi.

Topinambur usimligi kurgokchilikka chidamli bulishi bilan bir vaktida past xaroratga xam chidamli bulib, uning bu xususiyati usuv boskichlarida bir xil kechmasligi (O‘zO‘ITI tajribalarida) tadkikotlarda aniklangan. Erta baxorda unib chikkan usimlikning yosh novdalari kiska muddatli manfiy xaroratga xam yaxshi bardosh beradi. Birok, usuv davrining oxirlariga kelib (sentabr oyida) kiska muddatli sovuk xam usimlikka kuchli ta’sir utkazishi va bunday xollarda usimlikning barg va poyalari korayib kurib kolishi kuzatiladi.

